

HANS KRISTIAN ANDERSEN ERTAKLARINING BADIY TAHLILINING BOLALAR TARBIYASIDA O'RNI.

Shodmonova Ruxsora Odil qizi-

“Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Hans Kristian Andersenning hayoti davomida ko‘rgan qiyinchiliklari yozgan asarlarida aks etgan. Ertaklaridagi bolalarning obrazlari, bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi hamda o‘scha davrdagi yashash sharoiti tushunarli va sodda qilib tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: Obraz, vatanparvarlik ruhi yo‘g‘rilgan, dunyoqarash, samarali mehnat, tinimsiz izlanishlar, xalq og’zaki ijodi, buyuk yozuvchi obrazi, sevimli asar, kitobxon.

Bolalar dunyosi ertaklar bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, u bolalarning dunyoqarashi, fikrlashi hamda qiziqishini orttiradi. Shuningdek, bolalarning sevib tomosha qiladigan va eshitadigan ertaklarni yozish ham juda katta mahorat talab qiladi. Undagi obrazlar, voqealar, ertak qahramonlarining ijobiy va salbiy xislatlari bolalarda qay darajada ta’sir ko‘rsatishi, ulardagi mehr-oqibat, oq ko‘ngillilik, mehmondo’stlik sifatlarini ochib berishi hamda bolalarning fikrlashga ta’siri qay darajada bo’lishi, bularning barchasi mahorati yozuvchilarimizning qalami o’tkirligiga bog’liqdir.

Shundan ko‘rinib turibdiki, bolalar yozuvchisi bo‘lish ham juda katta mas’uliyat talab qiladi. Shundan biz Jahonga mashhur bolalar yozuvchisi Hans Kristian Andersenni misol qilib olishimiz mumkin. Buyuk yozuvchi Hans Kristian Andersen yozgan ertaklarida, asarlarida, asosan, o‘zining bolalik onlarini tasvirlab ko‘rsata olgan ijodkorlardan. U o‘z hayoti davomida ko‘rgan qiyinchiliklarini, bolalik onlarini oppoq qog‘ozga juda katta mahorat bilan tushiradi.

U ertaklardagi obrazlarni jonli tabiat hayvonlaridan foydalanishga harakat qiladi, hamda xarakter va jonli nutqni mukammallashtirishga erishdi. Shuning uchun Andersen yaratgan ertaklar sodda va kitobxonlar uchun tushunarli bo‘lishi bilan birga

o‘quvchilar xotirasida ham uzoq vaqt davomida unutilmas xotira bo’lib, saqlanib qoladi. Andersen ertaklarida ko’pincha bosh qahramon shahzodalar emas, balki, oddiy, mehnatkash xalqdir. Ular o’zlarining samarali mehnatini, aql-idroki, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga sazovor bo’ladilar. Uning “Qo‘ng‘iroqli girdob”, ”Kumush tanga”, ”Kalbasa sixidan sho‘rva”, ”Go‘ng qo‘ng‘iz” va boshqa asarlari so‘zimizning yaqqol isbotidir. Ertakchining ”Qo‘ng‘iroqli girdob” asarini olib ko‘raylik. Unda asrlar mobaynida ezilgan, og‘ir mehnat va zulmdan tinka-madori qurigan mehnatkash xalq vakili Blakening o‘z xojasiga qarshi turishi kitobxonni quvontiradi. ”Dyumchaxon”, ”Irkit o‘rdakcha”, ”Botqoqlik shohining qizi”,

”Baqa”, ”Burga bilan professa “ singari ertaklari o‘zbek kitoblarining ham sevimli asarlariga aylanib ketgan va hozirgi kunda ham kitobxonlar sevib mutolaa qilishmoqda . Shundan biz bolalar uchun sevimli asarga aylangan va qo’lma-qo’l bo‘lib ketgan “Bolalar gurungi” ertagi bilan tanishib chiqsak.

Ushbu turkumdagи ertaklar yosh avlodlarning odob-axloqli, ijobiy fazilatlari mujassam etgan barkamol avlod bo‘lib tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu tarbiya ruhi yoritilgan “Bolalar gurungi” ertagi so‘zimizning yaqqol isbotidir. Ushbu ertakda bir badavlat savdogarning ishlari yurishib, boy va dongdor xonadonlarning bolalariga ziyofat qilib berishi ko‘rsatilgan. Ziyofatga savdogar boyning barcha “aslzodalar” va “ulug‘vor boyonlardan” tanish-bilishlarining bolalari, shuningdek, na u va na bu mo‘tabar toifaga aloqasi bo‘lmagan kishilar bilan ham yaxshi muomala qilganligi bois, ularning ham bolalari ushbu kechaga kelganligi tasvirlab berilgan. Kechada faqat bolalar qatnashib, ular tinimsiz javrashar, og‘ziga kelgan gaplarni aytishar edi. Bolalar orasida bir g’oyat chiroyli, ammo, o‘taketgan dimog‘dor bir qizcha ham bo‘lib, u boshqalardan ajralib turardi. Uning bunchalik dimog‘dor bo‘lishiga ota -onasi emas, balki, unga xizmat qiladigan xizmatkorlari aybdor edi, ya‘ni ota-onasining farzandi tarbiyasiga e‘tibor bermaganligi bois, manman va takabburga berilishiga sabab bo‘ladi. Qizchaning otasi kamer-yunker bo‘lgan ekan. Qizchaning timsolida bu juda katta unvon bo‘lib tuyulishi tabiiy hol albatta.

-Men kamer-yunker qiziman!- derdi u. Uning oddiy bir oilada dunyoga kelishi ham mumkin edi. Xa, to‘gri bu bizning qo‘limizda emas edi. U o‘zini boshqalar oldida “oqsuyak” lardan ekanligini uqtirib:

-Kim oddiy toifadan bo‘lsa, undan biron e‘tiborli odam chiqmaydi. Har qancha o‘qima, izlanma, o‘rganma- baribir qoning toza bo‘lmasa, aslzoda bo‘lmasang hech narsaga erisholmaysan - derdi familiyasi “sen” bilan tugaydigan kishilarni aytmasa ham bo‘laveradi uning nazarida. Ulardan odam chiqmaydi derdi va xatti-harakatlari ham qizchani qanchalik takabbur ekanligidan dalolat berib turardi. Uning bunchalik takabburga berilganligi ko‘rib, savdogarning qizi qattiq xafa bo‘ladi. Chunki, dimog‘dor qizcha uchun familiyasining oxiri “sen” bilan tugovchi ismli insonlar uning nazarida past pog’onada turar va jamiyatda ham ulardan bironta odam chiqmaydi deb hisoblardi. Qanchalik o‘qimishli va bilimli inson bo‘lmasin,qizcha baribir shunday fikrda edi. Ya‘ni bu o‘rinda dimog‘dor qizchaning dunyoqarashiga shu qadar boylik va mol-u dunyo kabi dunyoviy narsalarga berilib ketganligidan o‘qish, bilim olish kabi oxirat bilimlari esidan chiqib ketganligi bizga ma‘lum. Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki, ota-onasining tijoratga berilib, farzandlarining kamolotiga e‘tiborsiz bo‘lganligi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Savdogar ham Gimnaziya davlatlarida o‘qib bilimini inson bo‘lsada, ammo, u qizchaning nazarida past pog’onada turaradigan kishi sifatida tasvirlanardi. Savdogar boyning nufuzli xalqaro Universitetlarda o‘qib, bilim olgan bo‘lsada ,ammo, familiyasining oxiri o‘sha qo‘shtirnoq ichidagi “sen “ bilan tugashi bolalarning orasidagi o‘zaro munosabatlarda ham o‘z isbotini topgan. Savdogarning qizi shu zahoti boshini baland ko’tarib:

-Mening otamni bilasanmi, otam yuz regsdalenning hammasiga novvot sotib olishi va uni sochib tashlab yuborishi mumkin. Sening otang shunaqa qiloladimi?

-Mana, mening otam esa,- dedi bir yozuvchining qizchasi, -sening otang, hozirgi dunyodagi hamma otalar haqida gazetaga yozishi mumkin. Oyim “Hamma sening otangdan qo‘rqadi” , deydi, axir hamma gazeta uning aytganini qilar ekan-da!

Bolalarning dunyoqarashi ularning fikrlashi albatta uydagi muhit bilan chambarchas bog’liqdir. Yuqorida keltirilgan jumlalarda bolalarning o‘zları

tushunadigan kichik dunyosidagi so‘zlari edi. Ular hali hech narsaning ahamiyatiga bormas, nima to‘g‘ri-yu nima noto‘g‘ri ekanligini ajratolmas edilar. Ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish ota-onaning vazifasi albatta!

Bu voqealarni devorni orqasida kuzatib turgan, bir kambag‘al bola uchun bu davraga qo‘shilishning umuman iloji yo‘q edi. U bugun oshpaz xotinning oldiga oshxona ishlariga qarashgani kelgan edi. Ishlarini tugatib, yasanib-tusanib olgan bolalarni uzoqdan, eshik orqasidan kuzatishga zo‘rg‘a ruxsat olgan edi. Bu uning uchun baxt edi.

Xullas, o’sha kuni shunday voqealar bo‘lgan edi, kimdir otasini gazetada ishlashini aytib maqtansa, yana kimdir esa otasining faloncha joylarda falonchi inson bo‘lib ishlaydi, degan gaplari bilan bir-biriga maqtanishi qoldi, xolos. Oradan ancha yillar o‘tib, o’sha bolalar ancha ulg‘ayib katta bo‘lishgandi.

Bu vaqtida o’sha shaharda xazinalar liq to’la bir uy paydo bo‘ladi. Qiziqayotgandirsiz bu uy kimniki deb? Bu uyni ko‘rishgaga, undagi mo‘jizadan bahramand bo‘lishga juda ko‘p joylardan odamlar kelardi.

Xo‘sh, savdogar uyiga yig‘ilgan bolalarning qaysi biri bu mening uyim derkan-a? Bunday olib qaraganda “bironta aslzodalarniki” deb o‘ylashlari turgan gap, lekin bunday emas. Bu uy o’sha kuni oshxonada xizmat qilib, aslzoda va boyvachcha bolalarning mahmadona gaplarini jimgina tinglab turgan o’sha sodda bolaniki edi. Ana o’sha bolaning familiyasi ”sen “bilan tugardi-ku, lekin, undan odam chiqdi. Mana jahonga mashhur rassom Torvaldsenni kim ham tanimaydi deysiz?

Boshqa bolalarchi? Nasl-nasabi, boylik va otasining o‘tkir farosatini pesh qilib gerdaygan bolalar endi kim bo‘ldi ekan? Albatta biron kimsa bo‘lgani turgan gap. Axir ular hammasi bola edi-da bolalarda sodda sof tushuncha murg‘ak ,o‘tkir zehn bo‘ladi. O’sha kechki guruhdagi ularning fikr-xayoli gap-so‘zlari shunchaki bir bolalik edi.

Mashhur ertakchi Hans Kristian Andersennenning “Bolalar gurungi “ertagi bilan tanishib chiqdik. “Bolalar gurungi “ ertagi qisqa, ammo, zamirida qanchalar ko‘p tarbiyaviy jihatdan hamda xulosa chiqarishishimiz uchun misol bo‘la oladi. Ushbu ertakda bir nochor bolaning his-tuyg‘ulari aks ettirilgan bo‘lib, uning tirishqoqligi va

o'tkir zehni bilan jahonga mashhur rassom sifatida tanilishi, o'zining qilgan mehnatlarini rohatini ko'rishi tasvirlangan. Darhaqiqat, Andersen ertaklarida o'zining hayotini ham tasvirlaganligi ma'lumdir. U ham hayoti davomida juda ko'p qiyinchiliklar ko'rgani o'quvchi-yoshlarga ma'lumdir. U o'z hayoti davomida ko'rgan qiyinchiliklarini oppoq qog'ozga tushirar ekan nochor bolada kechgan his-tuyg'ular, unda ham o'tgani qanchalik qiyinchiliklarga yengilmasdan oyoqqa turishi kitobxonni sevintiradi.

Ha, aziz do'stlar Hans Kristian Andersen ana shunday hayot kechirar ekan hayoti davomida o'tkazgan har bir daqiqasini oppoq qog'ozga tushirar ekan unda, albatta ichki bir kechinma o'tadi. Andersen ana shunday buyuk yozuvchi!